

•Input supply. The product at this stage usually consists of various natural or artificial fibers (yarn or thread). These fibers may be processed or unprocessed. Most of the time, the raw material from which this fiber is made is a natural resource such as cotton, oil, or rubber.

•Component network. This stage involves the processing of the fibers. The product is manufactured mainly from imported components or raw materials. The main activities at this stage are spinning yarn, weaving, knitting, and finishing fabric

•Production network. At this stage apparel manufacturers, such as garment factories or garment subcontractors, design, cut, and sew the fabrics produced.

•Export networks and logistics. Some garment firms sell their finished products directly to wholesalers (such as overseas buying offices or trading companies) or to retailers. In other cases, brand marketers collect final products and conduct quality inspections before selling the goods to department stores or retailers.

•Marketing and services. This final stage includes the marketing and retail sales of apparel products.

In conclusion, it can be stated that the strategy for enhancing the efficiency of foreign investments should not be limited to cotton cultivation or primary processing stages, but should instead focus on actively attracting investments into production segments that generate high value added. This approach increases investment returns within the national economy, strengthens competitiveness in international markets, and significantly expands the export potential of the textile industry.

References:

1. World Bank (2021). *An Investment Perspective on Global Value Chains (Chapter 7: Honduras textile and apparel GVC case study)*

2. World Bank, «Uzbekistan: Modernizing the Textile and Apparel Industry for Global Competitiveness», World Bank, Washington, DC, 2021.

3. Fernandez-Stark, K., Bamber, P., & Gereffi, G. (2016). *Peru in the High Quality Cotton Textile and Apparel Global Value Chain*

4. OECD (2025). *Roadmap for Sustainable Investment Policy Reforms in Uzbekistan (Trade-Investment Nexus section)*

5. Ikramova Nodira Burkhon kizi. (2025). *An Economic Model for Improving the Competitiveness of the Textile Industry in the Republic of Uzbekistan. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance*, 6(4), 1509–1516.

6. <https://lex.uz>

7. <https://stat.uz/>

MOLIYA BOZORI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA INSTITUTSIONAL INVESTORLAR FAOLIYATIDA UZOQ MUDDATLI MAJBURIYATLAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI

Sh.S. Muzrapova

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, PhD.

M.A. Asadova

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti magistranti

Annotatsiya. Mazkur tezisdagi uzoq muddatli majburiyatlar auditini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari tadqiq etilgan. Uzoq muddatli

kreditlar, obligatsiyalar, moliyaviy lizing va boshqa qarz instrumentlarini tan olish, baholash hamda moliyaviy hisobotda ochiqlash jarayonidagi mavjud muammolar tizimli ravishda tahlil qilingan. Xususan, diskontlash amaliyoti, samarali foiz stavkasi usuli, valyuta kursi farqlarini hisoblash hamda majburiyatlarni to'g'ri tasniflash bilan bog'liq xatolar audit riskining asosiy manbalari sifatida asoslab berilgan. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari talablari, jumladan International Accounting Standards Board tomonidan ishlab chiqilgan me'yorlar asosida audit metodologiyasini modernizatsiya qilish zarurligi asoslab berilgan. Ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar auditorlik tashkilotlarida audit sifatini oshirish, moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta'minlash hamda korxonalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar. *Uzoq muddatli majburiyatlar, audit, audit riski, riskka asoslangan yondashuv, moliyaviy leverej, diskontlash, samarali foiz stavkasi, obligatsiyalar, moliyaviy lizing, valyuta riski, moliyaviy barqarorlik, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari.*

Raqamli iqtisodiyot va globallashuv sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligi, investitsion jozibadorligi hamda kredit reytingi bevosita ularning uzoq muddatli majburiyatlarini oqilona boshqarish va to'g'ri aks ettirish darajasiga bog'liq. Uzoq muddatli majburiyatlar — bu korxonaning bir yildan ortiq muddatga jalb etilgan moliyaviy resurslari bo'lib, ular investitsion loyihalar, asosiy vositalarni modernizatsiya qilish va kengaytirish jarayonida muhim moliyaviy manba hisoblanadi. Mazkur majburiyatlar auditining takomillashtirilishi moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta'minlashda strategik ahamiyat kasb etadi. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, xususan International Accounting Standards Board tomonidan ishlab chiqilgan standartlar asosida uzoq muddatli majburiyatlarni tan olish va baholash jarayonida diskontlash, amortizatsiyalangan qiymat, samarali foiz stavkasi kabi murakkab hisob-kitob mexanizmlari qo'llaniladi. Bu esa auditorlik tekshiruvlarida yuqori darajadagi kasbiy mulohaza (professional judgement) va riskka asoslangan yondashuvni talab etadi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, uzoq muddatli kreditlar, obligatsiyalar va moliyaviy lizing majburiyatlarini noto'g'ri tasniflash, foiz xarajatlarini hisoblashdagi xatolar, shartnoma shartlarini yetarlicha ochiqalmaslik moliyaviy hisobotning haqqoniyligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Uzoq muddatli majburiyatlar auditini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish, audit metodologiyasini chuqurlashtirish hamda audit risklarini minimallashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Uzoq muddatli majburiyatlar auditini takomillashtirilishi nafaqat auditorlik amaliyotining sifatini oshiradi, balki korxonalarining strategik rivojlanishida ham muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy xalqaro standartlarga mos, riskka asoslangan va raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashgan audit modeli uzoq muddatli majburiyatlarning shaffof va ishonchli aks ettirilishini ta'minlaydi.

Quyidagi jadvalda uzoq muddatli majburiyatlar auditini takomillashtirish yo'nalishlarini tahlil qilamiz.

Tahlil natijalariga ko'ra, uzoq muddatli majburiyatlar auditida asosiy risklar tasniflash, baholash, hisob-kitob va ochiqlash jarayonlariga to'g'ri keladi.

Auditni takomillashtirish uchun:

riskka asoslangan yondashuvni kuchaytirish;

analitik amallar ulushini oshirish;

diskontlash va samarali foiz stavkasi bo'yicha alohida audit algoritmini joriy etish; shartnomaviy majburiyatlarni huquqiy tahlil bilan integratsiyalash zarur.

1-jadval

Uzoq muddatli majburiyatlar auditini takomillashtirish yo'nalishlari

No	Audit obyekti	Amaliyotdagi muammo	Audit riski turi	Takomillashtirish usuli	Kutilayotgan natija
1	Uzoq muddatli kreditlar	Majburiyatlarni noto'g'ri tasniflash (qisqa va uzoq muddatli qism ajratilmasligi)	Tasniflash riski	Majburiyatlarni muddat kesimida qayta inventarizatsiya qilish	Hisobotning haqqoniyligi oshadi
2	Foiz xarajatlari	Samarali foiz stavkasi noto'g'ri qo'llanishi	Hisob-kitob riski	Auditor tomonidan foizlarni qayta hisoblash (recalculation)	Moliyaviy natijalar aniqligi ta'minlanadi
3	Obligatsiyalar	Diskont/premium amortizatsiyasi to'liq aks ettirilmasligi	Baholash riski	Diskontlash formulalari asosida tekshiruv algoritmi	Majburiyatlar real qiymatda ko'rsatiladi
4	Moliyaviy lizing	Shartnoma shartlari to'liq ochiqlanmasligi	Ochiqlash riski	Shartnomalarni huquqiy ekspertiza asosida tahlil qilish	Axborot shaffofligi ta'minlanadi
5	Valyutadagi majburiyatlar	Kurs farqlarini noto'g'ri hisoblash	Valyuta riski	Hisobot sanasidagi kurs asosida qayta baholash	Moliyaviy risklar to'g'ri aks ettiriladi

Mazkur ko'rsatkichlar tizimi auditor uchun uzoq muddatli majburiyatlar bilan bog'liq quyidagi risklarni aniqlash imkonini beradi:

Moliyaviy barqarorlik riski – leverej va debt ratio orqali baholanadi;

To'lovga layoqatlilik riski – foizlarni qoplash koeffitsienti asosida aniqlanadi;

Valyuta riski – xorijiy valyutadagi majburiyatlar ulushi bilan bog'liq;

Baholash riski – diskontlash va amortizatsiyalangan qiymatni noto'g'ri qo'llash natijasida yuzaga keladi.

Riskka asoslangan audit modeli, xususan International Accounting Standards Board tomonidan ishlab chiqilgan moliyaviy instrumentlar bo'yicha standartlar talablari asosida, mazkur ko'rsatkichlarni majburiy analitik protsedura sifatida qo'llashni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *International Accounting Standards Board. (2023). IAS 37: Provisions, Contingent Liabilities and Contingent Assets. London: IFRS Foundation.*

2. *International Auditing and Assurance Standards Board. (2022). Handbook of International Quality Management, Auditing, Review, Other Assurance, and Related Services Pronouncements. New York: IFAC.*

3. *Hayes, R., Dassen, R., Schilder, A., & Wallage, P. (2014). Principles of Auditing: An Introduction to International Standards on Auditing (3rd ed.). Harlow: Pearson Education.*

4. *Arens, A. A., Elder, R. J., & Beasley, M. S. (2020). Auditing and Assurance Services: An Integrated Approach (17th ed.). Boston: Pearson.*

5. *Messier, W. F., Glover, S. M., & Prawitt, D. F. (2017). Auditing & Assurance Services: A Systematic Approach (10th ed.). New York: McGraw-Hill Education.*


6. Urazov, K. B. (2020). Buxgalteriya hisobi va audit. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
7. Akhmadjonov, K. B., & Yakubov, I. I. (2021). Audit asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya.
8. Boltaev, A. S. (2022). Majburiyatlarni tan olish va baholashning nazariy asoslari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 4(2), 115–123.
9. Pashaxodjayeva, D., & Ikromova, O. (2023). Majburiyatlar hisobi va uni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish masalalari. Moliya va bank ishi, 6(1), 45–52.

KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINI MOLIYALASHDA BANKLARNING ROLI

Kurbosheva Mohira Xafizovna
TerDU- mustaqil tadqiqotchi

Mamlakatimiz iqtisodiyotida kichik biznes subyektlari muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lib, iqtisodiy o'sish va barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli davlat tomonidan ushbu sohani qo'llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko'lamli shart-sharoitlar va institutsional mexanizmlar yaratilgan. Natijada so'nggi yillarda kichik biznes subyektlarining yalpi ichki mahsulot (YaIM) dagi ulushi sezilarli darajada ortib bormoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, kichik biznesning YaIMdagi ulushi 1991 yilda atigi 1,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2000 yilga kelib bu ko'rsatkich 31 foizga yetgan. Keyingi yillarda mazkur soha jadal rivojlanib, ayniqsa mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichi sifatida baholanadigan 2016 yilda uning YaIMdagi ulushi 66,8 foizni tashkil etib, eng yuqori darajaga chiqdi. Biroq keyingi yillarda ushbu ko'rsatkichda ma'lum darajada qisqarish kuzatildi. Jumladan, 2022 yilda kichik biznesning YaIMdagi ulushi 51,8 foizni, 2024 yilda esa 51,2 foizni tashkil etdi.

Yuqoridagi holatlar mamlakat iqtisodiyotini yanada rivojlantirishda kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatini oshirish muhim ekanligini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, kichik biznes subyektlarining eksport faoliyatini chuqur tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi (1-rasm).



1-rasm. 2024- yilda tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirilgan kredit bo'yicha ma'lumot, (%).

Kichik biznesni kreditlash mexanizmlarining samaradorligini oshirish hozirgi kunda O'zbekistonda moliyaviy inklyuziyani kengaytirish, xususi sektorini